

“ANNA FRANK KUNDALIGI” AVTOBIOGRAFIK ASARI*Nigora Jo‘ranazarova**Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi**Abdusattarova Mahliyo**Termiz davlat pedagogika instituti**O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Dunyoda shunday taqdir egalari borki, ular shunchaki noto‘g‘ri joyda, noto‘g‘ri vaqtda yoki noto‘g‘ri millat sifatida dunyoga kelishgan. Bunday deyishimga sabab, ularning tug‘ilishi taqdiriga juda katta, salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Bunday taqdirni “Anna Frank kundaligi” da ko‘rishimiz mumkin. Ushbu asar bir yahudiy qizning chordoqdagi yashirin hayoti davrida kundalik sifatida yozilgan. Voqealar II Jahon urushi davrida bo‘lib o‘tgan bo‘lib, real hayot yoritilgan. Asar 2 oila taqdiri timsolida butun bir yahudiylarning dahshatli hayotini ochib beradi. Ushbu asar juda ko‘p qiziquvchilarni o‘ziga jalb etdi va shu paytgacha Injildan keyingi eng ko‘p o‘qilgan nobadiy asar hisoblanadi.

Kalit so‘z: Anna Frank, yahudiy, Otto Frank, Vaan Danlar, Kitty, chordoq hayoti.

Аннотация: В этом мире есть люди, которым суждено родиться не в том месте, не в то время или не в той стране. Я говорю это потому, что этот документ может оказать очень существенное и пагубное влияние на судьбу ребенка. Подобную судьбу мы можем увидеть в «Дневнике Анны Франк». Это произведение было написано в форме дневника еврейской девушки, ведшей тайную жизнь на чердаке. События происходили во время Второй мировой войны и отражали реальную жизнь. В произведении ужасающая жизнь целой еврейской общины раскрывается через судьбу двух семей. Введение: Анна Франк, еврей, Отто Франк, Ваан Даны, Киттий, чердак.

Abstract: There are people in the world whose destinies are defined by simply being born in the wrong place, at the wrong time, or as part of the wrong nation. The reason for saying this is that the circumstances of their birth can have a massive, negative impact on their fate. We can witness such a destiny in *The Diary of a Young Girl* by Anne Frank. This work was written as a diary during a young Jewish girl's hidden life in an attic. The events take place during World War II and depict real life. Through the lens of two families' fates, the book exposes the horrific life of the entire Jewish population. This work has attracted a vast number of readers and remains the most widely read non-fiction book after the Bible to this day.

Keywords: Anne Frank, Jewish, Otto Frank, the Van Daans, Kitty, attic life.

Kirish

“Anna Frank kundaligi ” ni o‘qigan har bir kitobxon qalbida achinish, hayrat, nafrat, yashirin yashash azobini tuyish kabi hislar o‘z-o‘zidan uyg‘onadi va o‘quvchini o‘z domiga g‘arq qiladi. 13 yoshli qizning aqliga, shijoatiga, g‘ayratiga, qatiyatiga va shukronalik hissi to‘la qalbiga mahliyo bo‘lmaslikning iloji yo‘q. Asardagi barcha voqealar va tuyg‘ular haqiqiy hayotda yuz bergan. Yuqorida keltirib o‘tganimdek bu asar sujeti o‘ylab topilmagan yoki hayotiy voqealarga asoslanmagan, ayni hayotda bo‘lgan.

Anna Frank ushbu kundalikni 13 yoshidan to 16 yoshgacha yozgan avtobiografiya. Shu sababli ham bu asar nobadiy asar hisoblanadi. Anna Frank ushbu kundalikni yozar ekan ichidagi gaplarni kun kelib butun dunyo o‘qishini tasavvur ham qilmagan edi. Uning orzusi yozuvchi bo‘lish edi. Hayotlik paytida orusiga erisholmagan bo‘lsada hozir uning kundaligi qo‘lma-qo‘l o‘qilmoqda. Butun dunyo uning taqdiri ortida butun yahudiy millatiga mansub shaxslarning Gitler davridagi qiyinchiliklarini his qilishmoqda.

Asosiy qism

Anna Frank 13 yoshga to‘lganda unga turli-tuman, bir-biridan ajoyib sovg‘alar berishadi. Ammo unga eng yoqqani kundalik edi. Uni Kittiy deb atadi va hech kimga ayta olmagan gaplarini u bilan bo‘lishdi. Frank xonim ota-onasi va opasi bilan biga yashaydigan betashvish qizaloq edi. Maktanga borib kelar, yaqin dugonalari bilan ko‘chalarni sayr qilar edi. Uning yaqin dugonalari ko‘p bo‘lishiga qaramay Kittiyning eng yaqini deb bildi, barcha sirlarini unga ishondi. Sababi Kittiy bu sirlarni hech kimga aytib bermas edi. Bu yoshdagi, ya‘ni o‘smir bolalarda yetakchi faoliyat intim muloqotligi pisixologiyadan ma‘lum. Ya‘ni ular o‘zi uchun eng yaqin do‘st topadilar va yashirincha suhbatlarini ular bilan quradilar. Anna 13 yoshga to‘lganda shunday do‘st topdi. Kundalik qizning ko‘p sirlarini saqladi toki uni Annaning o‘limidan so‘ng otasi Otto Frank topib olib nashr qildirmagunga qadar. Kundalikda yahudiy millatiga mansub insonlarning qanchalik xo‘rlangani va qiynalganini ko‘rishimiz mumkin. Yagona sabab ularning millatida. Gitler ushbu millat vakillarini yomon ko‘rgan, hatto nafratlangan desak ham bo‘ladi. Yahudiylar ustida nemislar qanchalik daxshatli tajribalarni sinab ko‘rishgani hozir sir emas. Gitlarning mana shu nafrati tufayli nasroniylar va yahudiylar bir-biriga dushman bo‘lib qolishgan edi o‘sha davrda. Inson qaysidir millat vakili bo‘lib tug‘ilishni tanlay olmaydi. Shunday ekan millati tufayli kimnidir ayblash borib turgan ahmoqlikning o‘zi. Har bir davlatda, har bir millat vakillari orasida yaxshi va yomon insonlar birday yashaydilar. Kimningdir qilgan xatosi uchun boshqa birov javob bermaydi.

„Anna Frank kundaligi“da ana shunday aybsiz aybdorlar qismatini ko‘rishimiz mumkin. Ular 2 yildan ko‘roq vaqt davomida otasining ishxonasida, to‘g‘rirog‘i uning chodog‘ida yashashga majbur bo‘ladilar. Agar shunday qilishmasa, ularning ham

taqdiri boshqalarniki singari ayanchli bo'lishi turgan gap edi. Ularga nasroniy insonlar yordam berib turdilar, albatta. Yo'qsa bunday yashashning iloji bo'lmas edi. 2 yil davomida oziq-ovqat, kitob va yangiliklar bilan ularni ta'minlab turishdi. Bu kabi insonlar dunyoda hali ham yaxshilik bor ekanini eslatib turadi. 2 yildan so'ng esa, qo'shnilari ularning yashirin hayotini bilib qolib, sotib berishadi. Ularni ham boshqalar kabi lagerlarga olib ketishadi, lagerdan faqatgina Otto Frank tirik qaytatadi va kundalikni topib oladi. Shundan so'ng kitob holida nashr qilindi.

Hozirgi kunda ular yashagan chordoq va ularning uyi „Anna Frank ” nomidagi uy muzeyiga aylantirilgan. Bu qizchaga haykal qo'yilgan. Anna Frank- juda yosh, sho'x, g'ayratli, bo'sh qolishni yoqtirmaydigan, qalbidagi histuyg'ularni tushunib yetgan qizcha edi. U opasi Margoning g'irt aksi. Shu sababli opasi bilan yaqin emas, onasi bilan ham. U ichki kechinmalarini faqat mana shu kundalik va otasigagina ishonadi. Uning yoshi 13 da bo'lishiga qaramasdan asarni o'qir ekanmiz 20 yoki undan ham katta qizlarning tuyg'ularini unda ko'rishimiz mumkin. U nima uchun yahudiyligi aybi ekanini va shuning natijasida boshqalarga o'xshab erkin nafas ololmasligini ko'p o'ylaydi. Chordoqqa kelib yashab boshlagan paytdan u ko'plab asarlar o'qiydi, lotin tilini o'rganishni boshlaydi va katta-katta asarlarni bir tildan ikkinchisiga tarjima qilishga harakat qiladi. Undagi bu shijoat kishini shoshirib qo'yadi. Bugungi kunda bizd asharoitlar yetarli darajada bo'lsada, biz baribir baxona topishni eplaymiz. Undagi g'ayratning yarmi ham yo'q ko'pchiligimizda, afsus. Uning qalbida bolalarcha muhabbat emas, kattalarga xos jiddiy sevgi uyg'onadi. U o'zi bilan bitta uyda yashirin hayot kechiruvchi yahudiy Piter Vaan Danni sevib qoladi. Piter Margoga o'xshash edi. U ham Annani yoqtirishiga qaramay dilidagilarini ayta olmaydi. Anna buni sezadi va Piter ham o'ziga o'xshagan bo'lishini orzu qiladi. Ammo nachora hamma bir xil emasda. Otto Frank- Margo va Annaning otasi. Juda og'ir-bosiq, chuqur mulohazali kishi. Barcha otalar kabi farzandlariga borini berishga tayyor. Ular uchun oxirgi puliga ham kitob olib bergan ota. U farzandlarining mustaqil bo'lishlarini xohlaydi. Barcha oila a'zolari o'limidan so'ng kundalikni chop etirgan shaxs. Bugungi yashayotgan hayotimizga shukr qilishga o'rgatadi bu asar. Bizda hamma narsa bor: uy, mashina, hamma joyga alohida kiyim-kechaklar, muzlatgichimiz to'la bir-biridan mazali yeguliklar. Lekin biz shukr qilish o'rniga yana noliymiz. Kimdir bizdanda yaxshiroq yashayotganini ko'ra olmaymiz. To'ylarimizni men undan kam emas deb o'tkazamiz. Biz shunchaki yashashni bilmaymiz. Hayotning har bir daqiqasidan zavq olishni tushunmaymiz. Oila davrasida bo'lgan vaqtimiz aslida qanchalik baxtiligimizni his qilmaymiz. Ha azizlar, biz shunday avlod bo'ldik. Agar shu ketishda ketsa, bizdan keyingi avlodni tasavvur qilish ham qo'rqinchli. Chordoqdagi yashirin hayoti davomida chirigan kartoshkalarni yesada o'zini boshqa yahudiylarga qaraganda baxtliroq his qila olgan oilalar o'sha davrda qolib ketdi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, „Anna Frank kundaligi ” Anna uchun shunchaki hech kimga ayta olmagan gaplari yozilgan kundalik bo‘lsada, siz va biz kabi o‘quvchilar uchun haqiqiy xazina. Undagi sof insoniy tuyg‘ularni boshqa asarlardan topish qiyin. Undagi qo‘rquv shunchalik aniq tasvirlanganki, ularning 2 yillik hayotini tasavvur qilish qiyin emas. Ushbu asar qaysidir davr uchun yozilmagan. Undagi voqealar bizdan oldingi va bizdan keyingi avlod uchun ham birdek daxshatli. Axir insonni qanday qilib millatiga qarab tabaqalash mumkin?! Axir hammani Alloh yaratgan. Biz uning oldida tengmizku. Aybdorlar-ku mayli, aybsizlar nega jazolanishi kerak, bolalarda nima gunoh? Sizning ichingizdan shu kabi o‘y va kechinmalar o‘tayotgan bo‘lsa, demak, hali yaxshi insonlar bor. Birovning taqdiriga shunchaki befarq bo‘lish mumkin emas. Atrofimizdagilarga mehribonroq bo‘lishimiz, qo‘limizdan kelganicha yordam berishimiz kerak. Zero, bu asar aynan shu fikrlarni targ‘ib qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. „Dairy of a young girl“ (18-avgust 2023). Qaraldi: 20-sentyabr 2023.
2. „Who was Anne Frank?“.
3. Mullin, Joe. „Anne Frank foundation moves to keep famous diary copyrighted for 35 more years“. Ars Technica (2015-yil 16-noyabr).
4. Lebovic, Matt. „A most unseemly battle over the legacy of Anne Frank (In feud with Amsterdam museum, copyright holders are using final year before diaries enter the public domain to push a play, a TV docudrama, films, apps and an archive)“. Jewish Times (2014)